

OLIY SPORT MAHORATI INSTITUTI UCHUN “SPORTDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI” O‘QUV FANI

ABDUJALIL TOLAMETOV

professor v.b., Pedagogika va psixologiya kafedrası, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
E-mail: a.tolametov@sportedu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy sport mahorati instituti 61010300-Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi mutaxassisligi uchun sportda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy axborot texnologiyalari, ilmiy-uslubiy faoliyat, mustaqil ta'lim, sport trenirovkasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, kompyuter dasturlari.

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Har bir davrning o'z taraqqiyot omili, ehtiyoji, talabi va hayotiy tamoyillari mavjud bo'lib, ularni shakllantirish va rivojlantirishga, alohida mazmun-mohiyat berishga, yoshlarini ommaviy sportga jalb qilishga respublikamizda katta e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarni sport turlariga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun barcha imkoniyatlardan samarali foydalanishni ta'minlash, sportni inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uni jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularni o'z qobiliyatlari va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, iqtidorli sportchilarni saralash hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalari davlat siyosatining ustivor vazifalariga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyundagi "Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-269-son Qaroriga muvofiq Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo'yicha yuqori malakali hamda zamonaviy bilim va texnologiyalarni o'zlashtirgan trener, hakam, seleksioner va boshqa mutaxassislarni tayyorlash maqsadida professional ta'lim tizimini tamomlagan bitiruvchilar uchun o'qish davomiyligi uch yil hisoblanadigan davlat oliy ta'lim muassasasi shaklidagi ixtisoslashtirilgan Oliy sport mahorati instituti tashkil qilingan.

Qarorda respublikamiz Oliy ta'lim tizimidagi o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) tizimli foydalanishga yo'naltirilgan, umumlashtirilgan uslubiy yondashuvlar mavjud emasligi ta'kidlangan. Shu sabab, ta'lim mustaqilligini kengaytirish hamda o'quv jarayonini zamonaviy ilmiy bilish usullariga yaqinlashtirish maqsadida axborot kommuni-

katsiya texnologiyalarini ta'lim jarayonida takomillashtirish zarurati dolzarbligicha qolmoqda.

Sport sohasidagi ta'lim tizimida ham o'quv jarayoniga AKT vositalariga asoslangan pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga qaratilgan uslubiy qoidalar, sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi aniq dasturlar, jumladan sport mutaxassislarning kasbiy faoliyati xususiyatlarini inobatga olgan holda Oliy sport mahorati instituti talablarga moslashtirilgan "Sportda axborot kommunikatsiya texnologiyalari" o'quv fanining o'quv dasturni ishlab chiqish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Ishning maqsadi – Oliy sport mahorati instituti 61010300-Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi mutaxassisligi talabalarini sport mutaxassislari faoliyatida kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish va qo'llashni o'rganish bo'yicha dolzarb muammolarni aniqlash.

Tadqiqot usullari – mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, sohaning yetakchi mutaxassislari o'rtasida anketa-so'rov va suhbat o'tkazish, ilg'or tajribani o'rganish va umumlashtirish.

Tadqiqotning natijalari va muhokamasi. Sport sohasidagi ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bo'yicha mavjud muammolarni aniqlash maqsadida sohaning yetakchi mutaxassislari o'rtasida o'tkazilgan anketa-so'rov va suhbat natijalarini tahlil qilish, bugungi kunda, sport sohasidagi quyidagi yo'nalishlarda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llash zarurati aniqlandi:

- mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirishda;
- sport mashg'ulotlarida;
- sport musobaqalarida;
- jismoniy madaniyatni oshirishda;
- ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlarni tashkil qilishda;
- sport diagnostikasida;
- jismoniy holat va salomatlikni kuzatish hamda tahlil qilishda.

“Sportda axborot kommunikatsiya texnologiyalari” o‘quv kursi dasturini ishlab chiqishda, birinchi navbatda, AKTdan foydalanish boshqa fanlar bilan bog‘liqligi va uzviyligi, ikkinchidan sportdagi o‘lchashlarni, sportchi harakatlarini zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tahlil qilishni sport ta‘limi sohasidagi o‘rni, tizim faoliyatining sifati va samaradorligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan kasbiy faoliyat vazifalari va sohalariga e‘tibor qaratildi. Bunda, talabalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining Afzalliklarini his qilishlari va ulardan o‘z kasbiy faoliyatida foydalanish uslublarini o‘zlashtirishlari zarurligi e‘tiborga olindi. Shundan kelib chiqqan holda, quyidagilarni o‘rgatish fanning vazifalari sifatida belgilandi: sport mutaxassislariga kasbiy faoliyat jarayonida AKT va axborot xavfsizligini ta‘minlash yo‘llarini; sport mashqlarini zamonaviy didaktik materiallar bilan ta‘minlash maqsadida audio, video materiallarni, matnli axborotni yaratish va qayta ishlashni; sport bo‘yicha raqamli ma‘lumotlarni tahlil qilishni, multimedia taqdimotlar tayyorlashni, ijtimoiy media marketingni (SMM), masofaviy ta‘lim tizimlarini, kompyuter diagnostikasini, internetda axborot izlash va almashish yo‘llarini bilish; inson harakatlarini o‘rganish va modelashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish; sport sohasida mutaxassisni kasbiy tayyorlashda telekommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash; fan doirasida bilim, malaka va ko‘nikmalarni takomillashtirish.

“Sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” o‘quv kursi dasturida fanni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar quyidagilarni bilishi kerakligi belgilandi: kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligini; axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan audio, video materiallarni yaratish va qayta ishlashni; matnli axborotni

yaratish va qayta ishlashni; raqamli ma‘lumotlarni tahlil qilishni; sport bo‘yicha multimedia taqdimotlar tayyorlashni; inson harakatlarini o‘rganish va modelashtirishda axborot texnologiyalarini qo‘llashni; internetda sport sohasiga oid axborot izlash va almashishni; sportda ijtimoiy media marketing yuritishni, Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, “Sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” o‘quv kursi dasturi mazmuni quyidagi mavzularni qamrab olishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- Sport mutaxassislari kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligi;

- Sport mashqlarini zamonaviy didaktik materiallar bilan ta‘minlash uchun audio, video materiallarni yaratish va qayta ishlash;

- Matnli axborotni yaratish va qayta ishlash;

- Sportdagi raqamli ma‘lumotlarni tahlil qilish;

- Sport bo‘yicha multimedia taqdimotlar tayyorlash;

- Inson harakatlarini o‘rganish va modelashtirishda axborot texnologiyalari;

- Internetda sport sohasiga oid axborotlar izlash va almashish;

- Sportda SMM (Sotsial media marketing) ijtimoiy media marketing;

- Sport mutaxassisini kasbiy tayyorlashda telekommunikatsiya texnologiyalari;

- Sportda masofaviy ta‘lim;

- Sportda kompyuter diagnostikasi.

Xulosa. Oliy sport mahorati instituti 61010300-Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi mutaxassisligi bo‘yicha “Sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” o‘quv fani kursi dasturi uchun tanlangan mavzular bo‘yicha ta‘lim berish sport sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha talabalar yuqorida keltirilgan yo‘nalishlar yuzasidan malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi. Buning uchun o‘quv dasturidagi mavzular bo‘yicha ma‘ruza, amaliy mashg‘ulot va mustaqil ta‘lim 160 soatni hajmni (80 soat auditoriya va 80 soat mustaqil ta‘lim) tashkil qiladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktyabrda 43-raqam bilan hisobga olingan “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti talabalari doirasida tayyorlangan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы использования информационно-коммуникационных технологий в спорте для бакалавриата специальности 61010300-Спортивная деятельность (по видам деятельности) для Института высшего спортивного мастерства.

Ключевые слова: современные информационные технологии, научно-методическая деятельность, самостоятельное образование, спортивная тренировка, информационно-коммуникационные технологии, компьютерные программы.

Annotation. This article describes the issues of using information and communication technologies in sports for the undergraduate specialty 61010300-Sports activities (by type of activity) for the Institute of Higher Sports Skills.

Keywords: modern information technologies, scientific and methodological activity, independent education, sports training, information and communication technologies, computer programs.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyundagi "Oliy sport mahorati instituti faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-269-sonli Qarori;
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-sonli Farmoni;
4. Petrov P.K. "Noviy kurs «informatsionniye texnologii v fizicheskoy kulture i sporte» Teoriya ta metodika fizichnogo vixovannya. 2007. № 11, 10-12 s.;
5. Tolametov A.A. Jismoniy tarbiya va sport ta'limida axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari. // "Jismoniy tarbiya va sport" jurnali, № 10, 2019. 8-9 betlar;
6. Tolametov A.A. Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari // Darslik. T.: Umid Design, 2021;

BOLALAR VA TALABA-YOSHLAR JISMONIY TARBIYASI